

STRIMERLARNI TANLAB OLIISH MEXANIZMI VA TANLOV SHARTLARI

(Shaxmatni targ'ib qilish bo'yicha onlayn kontent yaratuvchilar tanlovi)

I. Tanlovning maqsadi

- Shaxmat sportini ommalashtirish va yoshlar o'rtasida qiziqishni oshirish;
- O'zbekistonlik strimerlar orqali onlayn shaxmat platformalarini targ'ib qilish;
- Shaxmatga oid sifatli, qiziqarli va ta'limiy kontentni ko'paytirish;
- Shaxmat bo'yicha turnirlar, yangiliklar va o'quv materiallarini keng auditoriyaga yetkazish.

II. Tanlov ishtirokchilari

Tanlovda qatnashishi mumkin:

- YouTube platformasida faoliyat yuritayotgan strimerlar;
- Shaxmat mavzusida kontent yaratishga tayyor va qiziqish bildirgan shaxslar.

III. Ariza topshirish tartibi

- Motivatsion xat — nega ushbu loyihada qatnashmoqchi ekanligi.

IV. Tanlov baholash mezonlari

№	Mezon	Ball	Izoh
1.	Professional daraja yoki sifatli amaliy kontent	15	
2.	Auditoriya bilan muloqot darajasi	15	
3.	Translyatsiyadagi faollik, sharhlar soni	15	
4.	Kuzatuvchilar soni va o'sish dinamikasi	15	
5.	Shaxmat bo'yicha bilim darajasi	10	
6.	Organik o'sish ustun	10	

7.	Dastlab kisqa test/intervyu bilan aniqlanadi	20	
8.	Kontent rejasining innovatsionligi	20	
9.	Ta'limiy, qiziqarli, loyihaga mos g'oyalar	10	
10.	O'yin platformalari bilan ishlash tajribasi	10	
11.	Chess.com, Lichess, ChessKid va boshqalar	10	
12.	Intizom va muntazamlik	10	

V. Tanlov shartlari va majburiyatlar

Tanlov g'oliblari quyidagilarni bajarishi shart:

- Oyiga kamida 8 ta jonli efir yoki 10 ta video kontent;
- Shaxmatga oid kamida 2 ta o'quv mashg'uloti (o'yin tahlili, strategiya, mashqlar);
- Rasmiy hamkor sifatida loyiha logotipi yoki belgilarini videoda joylashtirish;
- Kamida bitta mahalliy onlayn turnirni yoritish;
- Platforma qoidalariga rioya qilish, etik norma va sport madaniyatini saqlash.

VI. Qo'llab-quvvatlash mexanizmi

- Oylik maosh (byudjetga qarab);
- Shaxmat bo'yicha mutaxassislar bilan treninglar;
- Kontent uchun resurs va materiallar bilan ta'minlash (grafika, savollar, pozitsiyalar).